

#xalqaro_olimpiada
#matematika_fizika_informatika

XALQARO FAN OLIMPIADALARI: TAJRIBA VA IMKONIYAT

Atoqli qozoq matematigi, akademik Jautikov Oribek Axmetbekovich nomi bilan ataluvchi Xalqaro Jautikov olimpiadasi Qozog‘iston Respublikasida o‘tkazilayotgan, ta’lim sohasidagi eng nufuzli tadbirlardan biri hisoblanib, qariyb 20 yildan (2005-yildan) buyon Qozog‘iston Respublikasining Olma-Ota shahrida, har yili yanvar oyining birinchi yarmida Milliy fizika maktabi negizida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda.

Har yili mazkur olimpiadaga dunyoning yigirmadan ortiq davlatlaridan ishtirokchilar yig‘ilmoqda. Ular matematika, fizika va informatika fanlari bo‘yicha murakkab masalalarni yechishadi, shu orqali olimpiada haftaligida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi.

Olimpiadani o‘tkazilishidan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, kelgusida ularning intellektual salohiyatlarini oshirishlari uchun qulay sharoitlarni yaratish, o‘quvchi yoshlarning matematika, fizika va informatika bo‘yicha bilimlarini oshirish, shuningdek boshqa mamlakatlarning fizika-matematika va axborot texnologiyalari maktablari bilan xalqaro hamkorlikni rivojlanтирish hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, axborot texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda bu kabi bilimlar bellashuvida ishtirok etish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Olimpiadaning uchta asosiy yo‘nalishi – matematika, fizika va informatika – ishtirokchilarga ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarini kengaytirish va tadqiqot faoliyatidan ilhomlanish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Olimpiada jamoaviy musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Har bir jamoada 7 nafar ishtirokchi bo‘lishi kerak: matematika fani bo‘yicha 3 nafar, ,fizika fani bo‘yicha 2 nafar va informatika fani bo‘yicha 2 nafar ishtirokchi, shuningdek guruh rahbarlari (matematika, fizika va informatika o‘qituvchilari). Guruh rahbari olimpiadaning uchta rasmiy tilidan birini bilishi kerak: qozoq, rus yoki ingliz.

Har bir ishtirokchiga topshiriqlarni o‘z ona tilida bajarishga, shuningdek a’zolari soni yetti nafardan kam bo‘lgan jamoalarga yakka tarzda ishtirok etishga ruxsat beriladi. Bir mamlakatdan bir nechta jamoalar ishtirok etishi mumkin, ammo olimpiada tashkiliy qo‘mitasi bir mamlakat yoki shahar manfaatlarini ifodalovchi maktab jamoalari sonini cheklash huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Olimpiada natijalari har bir fan bo‘yicha individual ball bilan aniqlanadi. Jamoa reytingi ishtirokchilarning individual natijalari yig‘indisi bilan belgilanadi. Eng yaxshi maktablar diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan mazkur olimpiadada ishtirok etuvchi terma jamoa xalqaro olimpiadalarga saralashning birinchi bosqichi natijalariga ko‘ra shakllantiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qaroriga (<https://lex.uz/docs/-5621189>) muvofiq ushbu olimpiada maqomi respublika olimpiadasiga tenglashtirilgan mintaqaviy xalqaro olimpiadalar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, g‘olib o‘quvchilar va ularning o‘qituvchilari pul mukofotlari bilan mukofotlanadi.

Mazkur olimpiadada ishtirok etish uchun <https://khiso.uz/register> havolasi orqali ro‘yhatdan o‘tiladi. Havola bo‘yicha o‘tilgandan so‘ng quyidagi maydonlar to‘ldiriladi:

The image consists of three vertically stacked screenshots of the 'khiso.uz' website registration process:

- Top Screenshot:** A form titled 'Заполните информацию' (Fill in the information). It includes fields for 'Выберите свою категорию' (Select your category) with 'Ученик/Студент' (Student) selected, 'Примеси' (Primes), 'Типы' (Types), 'Выберите свой уровень' (Select your level) with 'Школьник' (School student) selected, 'Специальность' (Specialty), 'Придумайте пароль' (Create a password), 'Подтвердите пароль' (Confirm password), and 'Ведите свой номер телефона' (Enter your phone number) with '1234-5678'. A large blue button at the bottom right says 'Проверить' (Check).
- Middle Screenshot:** A yellow box titled 'Подтвердите свой личный аккаунт' (Verify your personal account) containing the text: 'Мы отправили СМС сообщение на ваш номер телефона. Нажмите кнопку ПОЛУЧИТЬ КОД и введите код, полученный в СМС.' (We sent an SMS message to your phone number. Click the GET CODE button and enter the code received in the SMS.). Below it is a blue button labeled 'Подтверждение' (Confirmation).
- Bottom Screenshot:** A form titled 'ОТРЕДАКТИРУЙТЕ ИНФОРМАЦИЮ СВОЕГО ПРОФИЛЯ' (Edit your profile information). It includes fields for 'Имя' (Name) with 'Джон', 'Фамилия' (Surname) with 'Джонсон', 'Профессия' (Profession) with 'Ученый', 'Степень' (Degree) with 'Бакалавр', 'Выберите свой пол' (Select your gender) with 'Мужской' (Male) selected, and 'Добавьте фотографию к своей анкете' (Add a photo to your profile). A blue button at the bottom right says 'Сохранить' (Save).
- Bottom Screenshot:** A form titled 'УСТАНОВИТЬ НОВЫЙ ПАРОЛЬ' (Set a new password). It includes fields for 'Новый пароль' (New password) and 'Повторите новый пароль' (Repeat new password). A blue button at the bottom right says 'Сохранить' (Save).

2024 yilning 7-13 yanvar kunlari XX xalqaro Jautikov olimpiadasida dunyoning 16 ta mamlakatlaridan (*Mo‘g‘iliston, Ruminiya, Rossiya, Turkiya, Indoneziya, Serbiya, Armaniston, Ozarboyjon, Belarus, Bolgariya, Gruziya, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, O‘zbekiston*) 680 nafar (*matematika fanidan – 286 nafar, fizika fanidan - 194 nafar, informatika fanidan – 200 nafar*) o‘quvchilar ishtirok etishdi.

O‘zbekistonlik o‘quvchilar ushbu olimpiadada 2 ta oltin, 3 ta kumush va 9 ta bronza, jami 14 ta medal qo‘lga kiritdi:

Informatika fani bo‘yicha:

Asilbek Sunnatov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi 10-sinf o‘quvchisi – oltin medal (olimpiada tarixida o‘zbekistonlik yoshlar qo‘lga kiritgan ilk oltin medal);

Husanboy Mansuraliev, Namangan shahridagi Prezident maktabi 11-sinf o‘quvchisi – kumush medal;

Matematika fani bo‘yicha:

Madina Suyunova, Kitob tumanidagi 96-IDUM 11-sinf o‘quvchisi – oltin medal;

Asadbek Boboqulov, Chilonzor tumani, S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi 1-bosqich o‘quvchisi – kumush medal;

Begzod Xoshimjonov, Marhamat tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab 11-sinf o‘quvchisi – kumush medal;

Behruzbek Elmurodov, Mirishkor tumani 21-maktab 10-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Maqsadbek Egamberdiev, Bog‘ot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab 10-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Asilbek Abduqayumov, Vestminster akademik litseyi 2-bosqich o‘quvchisi – bronza medal;

Elbek Zohidjonov, al-Xorazmiy ixtisoslashtirilgan maktabi 9-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Farhod Ochilov, Qorako‘l tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab 11-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Nurmuhammad Otamurodov, Olot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabi 11-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Ozodbek Axtamov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi 10-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Azizbek Mamajanov, Sayhunobod tumanidagi 3-maktab 8-sinf o‘quvchisi – bronza medal;

Ozodbek Orifjonov, Sayhunobod tumanidagi 3-maktab 10-sinf o‘quvchisi – bronza medal.

Ma’lumot uchun: 19-Xalqaro Jautikov olimpiadasi onlayn formatda tashkil qilingan bo‘lib, unda O‘zbekistonlik o‘quvchilar 5 ta kumush va 8 ta bronza medallarini qo‘lga kiritishgan edi.

Xurshida ZANJIROVA,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi informatika fani o‘qituvchisi, IZHO olimpiadasida informatika fani bo‘yicha ilk oltin medal sohibi Sunnatov Asilbekning ustozи